

# TARBIYAVIY ISHLARNI AMALIYOTDA TATBIQ ETISHDA PEDAGOGIK MAHORAT VA UNING ASOSIY TAMOYILLARI

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo'nalishi 1-22-guruh talabasi*

***Hayitnoyozova Hilola***

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti  
pedagogika yo'nalishi 1-22-guruh talabasi*

***Toxirova Zuhra***

## **Annotatsiya**

Ushbu ilmiy maqolada sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar sinf rahbarining vazifalari va pedagogik mahorat tamoyillari haqida so'z yuritilgan

**Kalit so'zlar:** Mahorat, tarbiyaviy ishlar, pedagogika, sinf rahbari, pedagog, jamiyat, tamoyil, tadqiqot, bilim, ko'nikma, malaka.

## **KIRISH**

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Ayniqsa o'smirlar orasida axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhimdir. Zero, axloq yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lif muassasalari tarbiya-chilari (o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rindbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi. Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlari axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruhdagi o'rni aniqlanadi, atrofdagilarning u bilan munosabati belgilanadi, o'qishdagi muvaffaqiyat bolaning axloqiy tarbiyasini yuqori darajaga ko'taradi.

## **ASOSIY QISM**

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishiga imkoniyat yaratadi. Shu sababli keyingi davrda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko'ngilli uyuştirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning hajmi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichida o'quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim.

Hozirgi davr talabi maktabdagi o‘quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo‘ymoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, g‘oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlarga ega qilishi, mehnatga va ongli kasb tanlashga tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o‘ynaydi. Chunki u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi. Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O‘ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg‘iz o‘zi emas, balki shu sinfda dars berayotgan turli fan o‘qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o‘quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O‘quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.
2. O‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqish va qobilyatini o‘stirish, har bir o‘quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o‘quvchining sog‘lig‘ini mustahkamlashga ham alohida e’tibor beradi.
3. Sinf rahbarining diqqat markazida o‘quvchilarning darsni yuqori o‘zlashtirishlarini ta’minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o‘quvchining kundalik o‘zlashtirishidan voqif bo‘lib turadi. Orqada qolayotganlarga o‘z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.
4. Sinfdagagi o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish ishlarini yo‘naltirib turadi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini hamda mifik miqiyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o‘z sinfining faol qatnashishini ta’minlaydi.
5. Sinf o‘quvchilarining ota-onalari, kuni uzaytirilgan guruhlarning tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o‘rnatadi.
6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o‘qituvchilari o‘rtasida o‘quvchilarga nisbatan yagona talablar o‘rnatalishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan mifik o‘rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

Pedagogik mahorat tizimi quyidagi o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq

bo‘lgan asosiy komponentlardan iborat:

1. Pedagogik insonparvarlik talablariga bo‘ysunishi.
2. Kasbga oid bilimlarni boshqa fanlar bilan aloqadorlikda mukammal bilish.
3. Pedagogik qobiliyatga ega bo‘lish.
4. Pedagogik texnika sirlarini puxta egallash.

Pedagogik qobiliyatning turlari va ularning tavsifi

Yirik olim F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni quyidagi turlarga ajratishni taklif etadi: 1) didaktik qobiliyatlar; 2) akademik qibiliyatlar; 3) pertseptiv qobiliyatlar; 4) nutq qobiliyatları; 5) tashkilotchilik qobiliyati; 6) avtoritar qobiliyatlar; 7) kommunikativ qobiliyatlar; 8) pedagogik xayolot; 9) diqqatni taqsimlay olish qobiliyati.

F.N.Gonobolin pedagogik qobiliyatlarni tarkib toptirish bosqichlari, xususiyatlari va xossalari to‘g`risida mukammal ma’lumotlar beradi. Ta’lim va tarbiya jarayonini takomillashtirishda pedagogik qobiliyatlarning roli tajriba materiallariga asoslanib sharhlab beriladi.

Distervegning haqqoniy ravishda ta’kidlashicha, muvaffaqiyatli ta’lim hamisha tarbiyalovchi xarakterda bo’ladi. Bunday ta’lim o’quvchi-talabalarning aqliy kuchlarinigina o’strib qolmay, balki uning shaxsini, irodasini, sezgilarini, xulqatvorini ham kamol toptiradi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirishga ularni mustaqil bo‘lishga va yashirin qirralarini ochishga ko‘maklashadi.

Bundan tashqari o‘quvchilarni to‘g‘ri yo‘lga boshlashda ularni kasbiy faoliyatga tayyorlashda sinf rahbarining ahamiyati kattadir.

Sinf rahbari o‘quvchilar jamoasini jiqlashtirishga ular bilan kommunikativ aloqani rivojlantirishga bolalar yetakchisi sifatida ularni to‘g‘ri yo‘lga boshlashga harakat qilishi lozim.Bu o‘rinda pedagogik mahoratning tamoyillaridan foydalanishi o‘rinlidir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni olıyanob xalqımız bilan birga quramız". Toshkent: "O‘zbekiston" 2017.
2. Milinorov, X. X., and D. N. Eshmuratova. "THE ROLE OF UZBEK TRADITIONS, CEREMONIES AND CUSTOMS IN PERSONALITY DEVELOPMENT." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 205-209.
3. Shavkat, Khaydarov, and Khuzhaniyozov Bakhrom. "ON THE IMPORTANCE OF ETHNOPEDAGOGICAL TRADITIONS IN THE UZBEK PEOPLE." *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.5 (2024): 210-214.
4. Isakhodjayev, Kh, et al. "Cooling air in contact with natural sources of cold." *E3S Web of Conferences*. Vol. 383. EDP Sciences, 2023.
5. Лапп, Елена Александровна, Елена Викторовна Шипилова, and Акрам Рустамович Сохибов. "ПРОЕКТИРОВАНИЕ И СОПРОВОЖДЕНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ МАРШРУТОВ ДЛЯ ШКОЛЬНИКОВ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ ЗДОРОВЬЯ: РАБОЧАЯ ПРОГРАММА КУРСА." *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ*. 2021.

6. Sokhibov, Akmal. "Economic and Political Restraints for Reducing the Drug Economy in Afghanistan." *Sicherheit und Frieden (S+ F)/Security and Peace* (2014): 193-200.
7. Rustamovich, Sohibov Akram. "Using A Modular Approach in the Credit System of Education." *Academica Globe* 2.6 (2021): 391-394.
8. Сохибов, Акрам Рустамович. "Формирование организаторских способностей молодёжи Республики Узбекистан." *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов* 9 (2016): 71-73.
9. Сохибов, Акрам Рустамович. "MODERN METHODOLOGICAL BASES OF HIGHER EDUCATION MANAGEMENT IN THIS ERA OF DIGITISATION: <https://doi.org/10.53885/edinres.2022.10.10.018> Soxibov Akram Rustamovich PhD Associate Professor of the Department of Pedagogy Karshi State University." *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал* 10 (2022): 169-176.
10. Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "Pedagogik faoliyat jarayonida bo 'lajak pedagoglarni raqamlı texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirish." *Ta'limning zamонавиј transformatsiyasi* 7.4 (2024): 305-312.
11. Xusniddin, Milinorov, and Mavlonova Malika. "Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-pedagogik tayyorlash jarayonida kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish metodikasi." *Ta'limning zamонавиј transformatsiyasi* 7.4 (2024): 296-304.
12. Милиноров, Хусниддин Хушматович, and П. М. Жалолова. "ПРОЦЕСС ОРГАНИЗАЦИИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ В ВЫСШЕЙ ШКОЛЕ." *Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies.* Vol. 3. No. 5. 2024.
13. Jalolova, P. M., and Yo D. Odilov. "Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies." *SCIENCE AND WORLD* (2013): 20.
14. Jalolova, P. "USE OF ICT TOOLS TO INCREASE THE EFFECTIVENESS OF TEACHING PHYSICS IN GENERAL SECONDARY SCHOOLS." *Science and innovation* 2.B5 (2023): 393-401.
15. Jalolova, Pokiza, and Yorkin Odilov. "CALCULATION AND MODELING ENERGY LEVELS IN THE ATOM ON THE BASIS OF INFORMATION TECHNOLOGY." *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol 7.12 (2019).
16. Jalolova, Pokiza. "Theoretical-methodological aspects of quantum physics section in the credit module system." *Solid State Technology* 63.6 (2020): 152-158.
17. Хайдаров, Шавкат. "Роль этнопедагогики в узбекском народном традиции." *Ta'limning zamонавиј transformatsiyasi* 7.4 (2024): 286-291.

- 18.Khaidarov, Sh. "MOTIVATION OF PEDAGOGICAL BACHELORATE GRADUATES FOR PROFESSIONAL TEACHING ACTIVITIES." Science and innovation 2.B12 (2023): 892-895.
- 19.Khaydarov Shavkat Khuzhaniyozov Bakhrom. "On The Importance Of Ethnopedagogical Traditions In The Uzbek People" 2. 2024/5:c 210-214
- 20.Ochilova, N., and Bahrom Xo'janiyozov. "TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINING O'RNI." Results of National Scientific Research International Journal 1.7 (2022): 339-343.
- 21.HUJANIYOZEV, B. "ORGANIZATION OF THE FORMATION OF HISTORICAL THINKING OF SCHOOLCHILDREN IN AN EDUCATIONAL ORGANIZATION." Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi 7.4 (2024): 292-295.
- 22.Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "PEDAGOGIKANING INSON VA UNING SHAXSINI SHAKLLANTIRADIGAN ORNI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 145-151.
- 23.Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "BOSHLANG 'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG 'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 158-162.
- 24.Xushmatovich, Milinorov Xusniddin. "TALABALARDA MUAMMOLI TA'LIM JARAYONINI RIVOJLAHTIRISH TEXNOLOGIYASI." *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari* 8.1 (2024): 163-170.